

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

**MARKAZIY OSIYO FALSAFIY TAFAKKURI
TARAQQIYOTIDA TASAVVUF TA’LIMOTINING
O‘RNI VA AHAMIYATI**



**mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy
ANJUMANI**

Buxoro – 2023



«Markaziy Osiyo falsafiy tafakkur taraqqiyotida tasavvuf ta'limotining o'рни va ahamiyati» mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 2023 yil 25 mayda o'tkazildi. Anjuman to'plamiga Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan ustuvor vazifalar va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, Xojai Jahon tavalludining 920 yilligi va Bahouddin Naqshband tavalludining 705 yilligiga bag'ishlab yozilgan, shuningdek, tasavvufiy g'oyalarning genezisi; Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy tariqatlar; Markaziy Osiyoda mumtoz tasavvufiy tariqatlar; tasavvufdagi falsafiy g'oyalar hamda Ziyorat turizmi bilan bog'liq muammo va yechimlarni o'zida aks ettirgan maqolalar kiritildi.

To'plam materiallari yoshlarga tasavvuf ta'limotlari va ularda aks etgan tasavvufiy g'oyalar, tasavvuf falsafasi tarixi va bugungi kundagi taraqqiyotini o'rgatish, xalqimizning o'tmishda ulug' pirlar yozib qoldirgan asarlar va ular bergan bilimlar asosida ma'naviyatimizning shakllanganligi haqida bilim berish bilan birgalikda ularni vatanparvar, ma'naviy jihatdan barkamol inson etib shakllantirishga xizmat qiladi. Professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, falsafa va din tarixi bilan qiziquvchi talaba-yoshlar uchun mo'ljallangan.

Tahrir hay'ati:

Mirzo Sharipov-BuxMTI rektori, fizika-matematika fanlar doktori, professor

Gulchehra Navro'zova-Bux.MTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida professori, falsafa fanlar doktori

Erkin Zoyirov-BuxMTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Feruz Bafoyev-BuxMTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlari nomzodi

Mas'ul maharrir:

Abduraxim Boltayev-BuxDU dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi

Voxidova Munira-BuxMTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Oygun Sharipova-BuxDU dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

Avliyoqulov Uchqun-Mir Arab Oliy madrasasi prorektori



HAKIM TERMIZIY MA'NAVIY MEROSIDA KASB VA RIZQ MASALASI

Xaitov Lazizbek Azamatovich-BuxDU "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori(Phd)

Insoniyat tarixi va rivojida kasb-hunar egallash va mehnatsevarlik umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Kasb va rizq masalasi musulmonlar orasida juda ko'p bahslarga sabab bo'lgan mavzulardan biri hisoblangan. Bu ikki tushuncha bir-biriga chambarchas bog'langan. Rizqning ko'payishi kasbu-kor va mehnat bilan dialektik aloqadordir. Kasbu-kor bilan shug'ullanadigan, halol-mehnat qiladigan kishining rizqi ko'payadi. Rizq va kasb tushunchalarini me'yorga solishda tavakkul tushunchasi asosiydir.

Tasavvufda rizq va kasbga bo'lgan munosabatlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Allohga tavakkul qiling, u rizqni beradi. Bu g'oya tarafdorlari kasb-kor bilan shug'ullanish kerak emas, faqat ibodat qilish kerak degan g'oyani qo'llaydilar.

2. Mehnat qiling, harakatda bo'ling va Allohga tavakkul qiling. Bu g'oya tarafdorlari Alloh rizqni beradi, ammo harakat qilib halol mehnat qilish kerak, deb hisoblaydilar.

3. Faqat kasbu-kor bilan shug'ullanish kerak, chopsang (yugursang) rizqing ko'payadi. Ya'ni Faqat o'zing rizqingni topasan, degan g'oyani qo'llaydilar.

Hakim Termiziyning kasb, rizq tushunchalariga munosabati "Bayonul kasb" ("Kasbning bayoni") asarida yoritilgan bo'lib, mazkur asarda ilm-ma'rifatli bo'lish, muayyan kasb-hunarni egallash, halol mehnat bilan ro'zg'or tebratish, o'z mehnati bilan rizq-ro'z topish fazilatlarini kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida so'z yuritilgan.

Hakim Termiziy mavzuni yoritishda Qur'oni Karim oyatlari va Hadisi-Shariflardan ko'plab dalil va hujjatlar keltirib, unda mavzuni yaxshiroq tushuntirish uchun hayotiy misollar va o'xshatmalarni ham berib o'tgan.

Mutasavvif "Bayonul kasb" ("Kasbning bayoni") asarida kasb va maosh borasidagi so'zni birinchi inson Odam a.s. boshlagan. U kishini "rizq talab qilishga chaqirilgan birinchi kishi" sifatida eslatgan. Qur'oni Karimning Toxo surasidan keltirilgan oyat misolida Odam Atoga jannatda to'rt narsa-taom, ichimlik, kiyim va maskan berilganini aytgan¹. Rizq talab qilish mashaqqati Odam a.s. (erkak kishi) vojib qilingan. Chunki Odam a.s. toatni tark qilganlari uchun maosh talab qilishga muhtalo bo'lib, Hakim Termiziy shu masalada "Kim robbiga itoatliroq bo'lsa, rizqi osonroq bo'ladi" degan xulosaga kelgan.

Hakim Termiziy "Bayonul kasb" asarida tarixda birinchilardan bo'lib, xotinning nafaqasi erga vojibligini ta'kidlagan².

¹ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / A. Mansur tarj. – T.: TIU, 2004. – B. 326.

² Nafaqa izohli lug'atda "yaxshilikka mablag' ajratish" degan ma'noni bildiradi. Shariatda esa "o'z qaramog'idagi kishini yetarli kiyim bosh, taom maskan (uy), tozalik va ro'zg'or asbob– anjomlari bilan ta'minlash" nafaqa deyiladi. Nafaqa er-xotinlik va qarindoshlik yo'li bilan vojib bo'ladi. Nafaqaning erga vojib bo'lishi Qur'on, sunnat,



So'ngra Hakim Termiziy kimlarning rizqi ta'minotsiz kelishi haqida so'z yuritgan. Bu yerda birinchi guruh siddiqlar deb ataladi va ularning vakili sifatida Maryamni zikr qilgan. Siddiqlarga rizqning o'z-o'zidan kelib turishi ularning siddiqliklarini tasdiqlash uchun bo'lgan. Aslida ular xuddi boshqalar kabi kasb bilan shug'ullanib, rizq topib yurishgan. Jumladan, Maryam maosh talab qiladigan kimsalardan bo'lib, u kishi ip yigirish bilan shug'ullangan, Iso alayhissalom u kishining mana shu kasb bilan topganlaridan rizqlanar edilar.

Hakim Termiziyga kasb qilishdan ko'zlagan bosh maqsadlardan biri nima deb savol beradilar? Javoblarida: Yaxshi taomga ega bo'lishdir deb fikr bildiradilar. Mutasavvif fikrlarini davom ettirib, "Taomning qay biri yaxshi?" degan savolga: "Taomning yaxshisi va Allohga mahbubi kishi qo'li bilan kasb qiladiganidir"-deb javob bergan. Bu fikrlarga dalil sifatida payg'ambar Dovud a.s. qo'li bilan qilgan kasbidan yer edi degan Rasullulloh s.a.v hadislarini misol qilib keltiradilar. Zero, payg'ambarlar faoliyatlarida buni tasdiqlaganlar, kishilarni amalga va kasb qilishga undaganlar. U kishi odamlarni qo'l mehnatiga undab, qo'l mehnati ixlos bilan qilinsa ko'p baraka keltirishini ta'kidlaganlar.

Hakim Termiziyning halol rizq va kasbu korga bo'lgan munosabati keyinchalik Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Bahouddin Naqshbandga ta'sir etib, "Dil ba Yor-u, dast-ba kor"-ya'ni, "ko'ngling Allohda bo'lsin, qo'ling esa ishda" degan shiorni ilgari surgan.

Xulosa qilib, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Hakim Termiziyning inson kamolotiga asos sifatida ilgari surgan rizq va kasb haqidagi g'oyalari uning "Bayonul kasb" "Kasbning bayoni" risolasida ochib berilgan. Alloma tomonidan asos solingan "Hakimiyya" ta'limoti ahli kasb-rizq tushunchasini, tavakkul qilishni to'g'ri anglab, halol-mehnat va kasbu-kor bilan shug'ullanishgan.

2. Hakim Termiziy Odam Atodan boshlab, inson mehnat qilib, halol rizq topishi lozim, degan bunyodkor g'oyani ilgari surish bilan bir qatorda insonlarni halol kasb egallash, halol kasbda baraka borligi, ezgu-niyat bilan, xalqqa foydasi tegishi, ta'masiz, xolis mehnat qilishga chaqirganlar.

3. Hakim Termiziy rizqning Alloh tomonidan berilishi, uning taqdirida yozilganligini tan olish bilan birga, lekin "Harakatda baraka" borligi, insonga qo'l-oyoq, aql-idrok behudaga berilmaganini, kasb-kor bilan shug'ullanishni inkor etuvchi kishilarni o'turuvchilar degan nom bilan ta'na-malomat qilib, bunday insonlarni ayovsiz tanqid qilgan.

ijmo va aql ila sobit bo'lgan. Demak, nafaqa yuqorida zikr qilingan taom, ichimlik, kiyim va maskan kabi to'rt narsadan iboratdir.



BILIMDONI	
<i>Oripova M.Q.</i>	101
IBN ARABIY SHE'RIYATIDA VAHDAT MASALASI	
<i>Boltayev A.A.</i>	104
ABULQOSIM QUSHAYRIY VA SILSILAI ZAHABIYA	
<i>Qodirov D.H.</i>	106
IMOM AL-BUXORIYNING HADIS ILMIGA QO'SHGAN HISSASI	
<i>Qalandarova F. A.</i>	108
IBN SINO FALSAFIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI	
<i>Nurova Sh.N.</i>	110
HAKIM TERMIZIYNING "XATM AL-AVLIYO" ASARIDA VALIYLIK MASALASI VA UNING MUTAFAKKIRLAR ILMIY MEROSIGA TA'SIRI	
<i>Xaitov L.</i>	112
XORIS IBN ASAD AL-MUHOSIBIYNING "MUHOSIBIYA TARIQATI" ILK SO'FIY TARIQATLARI	
<i>Misolida M.O'</i>	114
YA'QUBI CHARXIY TA'LIMOTIDA VAHDAT UL-VUJUD TAMOYILI.	
<i>Zoyirov E.X.</i>	116
IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING O'RGANILISHI	
<i>Qalandarova F. A.</i>	118
ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALASI	
<i>Nurova Sh.</i>	120
NAJMIDDIN KUBRO VA KUBROVIYA TARIQATINING O'ZIGA XOSLIGI	
<i>Alimova Sh.</i>	122
SO'FIY AYOL ROBIA ADAVIANING FALSAFIY QARASHLARI	
<i>Bozorova R. Sh.</i>	125
XOJA AHMAD YASSAVIY VA YASSAVIYA TARIQATI	
<i>Alimova Sh.</i>	127
XOJA ABDUXOLIQ G'IJDUVONIY VA XOJA ORIF REVGARIY TA'LIMOTLARIDAGI INSONPARVARLIK QARASHLARINING O'ZIGA XOSLIGI	
<i>Dehqonov B.B.</i>	129
MARKAZIY OSIYODA ILK TASAVVUF AMALIYOTINING VUJUDGA KELISHI VA UNING SHAXSLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISHDAGI RAVNAQI.	
<i>Ismailov Sh.A.</i>	132
MARKAZIY OSIYODAGI MUMTOZ TASAVVUFIY TARIQATLAR VA ULARDAGI FALSAFIY G'OYALAR	134
MARKAZIY OSIYO BUYUK SIYMOLAR BESHIGI.	
<i>Mavlyanov U.N.</i>	134
MIRZO ABDULQODIR BEDIL FALSAFANING BILIMDONI	
<i>Raxmatova X.X.</i>	136
MARKAZIY OSIYO HUDUDIDAGI TASAVVUFIY TARIQATLAR VA ULARNING TASNIFI	
<i>Evatov S.S., O'ktamov M.</i>	138
HAKIM TERMIZIY MA'NAVIY MEROSIDA KASB VA RIZQ MASALASI	
<i>Xaitov L. A.</i>	141
HADIS VA TASAVVUF MUSHTARAKLIGI.	
<i>Jo'rayeva L.</i>	143
SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDA OILANI BOSHQARISHDA FARZAND TARBIYASI MASALASINING YORITILISHI.	
<i>G'afurov D. O.</i>	145
ABU HAFS KABIR BUXORIY HAZRATLARI-MA'NAVIY KOMILLIK TIMSOLI	



<i>Haydarov Y.H.</i>	147
ALI SAFIY ASARLARI TASAVVUFGA OID MANBA SIFATIDA	
<i>Tangirberdiev Sh.G.</i>	150
JANUBI-SHARQIY OSIYODA TASAVVUF TARIQATLARI	
<i>Avliyoqulov U.M.</i>	152
MIR ALISHER NAVOIY IJODIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING O'RNI	
<i>Alimova Sh.</i>	153
TASAVVUF G'OYALARINING TURLICHA TA'RIFLANISHI, MIR ALISHER NAVOIY IJODIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING O'RNI	
<i>Nurmatova N.U., Safoyev J. N.</i>	156
MIRSIDDIQ HASHMAT BUXORIY – SAYYID MUHAMMAD MIR SIDDIQXON (HASHMAT) NING TASAVVUF TA'LIMOTI	
<i>Sheroz T.T.</i>	159
HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ME'ROSIDA AXLOQ VA TARBIYA MASALALARI	
<i>Alimova M.M.</i>	161
SIDDIQIY-AJZIYNING MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARINI JAMIYAT RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	
<i>Haqqulov N.Q.</i>	163
SHAXS MA'NAVIYATI XUSUSIDA	
<i>Muradov S.A.</i>	165
MILLIY MADANIYATIMIZ-MANAVIYATIMIZ MANBAI.	
<i>Xudayberdiyeva G.X.</i>	166
MIRSIDDIQ HASHMAT BUXORIY-SAYYID MUHAMMAD MIR SIDDIQXON (HASHMAT) NING ASARLARIDA TASAVVUF G'OYALARINING NAMOYON BO'LISHI	
<i>Temirov Sh.</i>	169
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MILLIY XALQ AN'ANALARINING O'RNI	
<i>Muradov S.A.</i>	172
ZIYORAT TURIZMI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.	174
O'ZBEKISTONDA ICHKI ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH	
<i>Sultonova L.S.</i>	174
ZIYORAT TURIZMINING JAMIYAT RIVOJIDA TUTGAN O'RNI.	
<i>Muxammedjanova L.P.</i>	176
ИСТОРИЧЕСКИЙ И КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ	
<i>Бобокулова М.</i>	178
О ФИЛОСОФИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ	
<i>Бафоев Ф.М.</i>	180
HUQUQIY REALLIK HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLAR	
<i>Muzaffar B.</i>	184
O'ZBEKISTON VA TURKIYA DAVLATLARINI ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA HAMKORLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR	
<i>Imamov B.X.</i>	186
ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MA'NAVIY – AXLOQIY ASOSLARI	
<i>Berdiyeva G.A.</i>	191
SHAXS EKOLOGIK DUNYOQARASHI SHAKLLANISHINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI	
<i>Saodatov A.A.</i>	193
O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR.	
<i>Raxmatova D.</i>	195
ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI	
<i>Sadullayeva D.</i>	198



**Maqolalarda keltirilgan ixtiboslar (sitatalar) va maqolalar mazmuni uchun
javobgarlik mualliflar zimmasida.**

Kompyuterda sahifalovchi:

Shodiyev J.J.